https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maxmudjonova Nargizaxon,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

1-bosqich magistranti nmaxmudjonova22@gmail.com.

NOMA’LUM "O‘G‘RI" GA TAQLID

Annotasiya

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida deyksis turlari, og‘zaki nutq va badiiy asarlardagi deyktik birliklarning qo‘llanishidagi farqli jihatlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar

til va nutq, deyksis hodisasi, og‘zaki nutq, badiiy asar, deyktik birliklar.

Annotation

This article examines the units that realize the phenomenon of deixis in Abdulla Qahhor’s story “O‘g‘ri”. Through the analysis of these units, the study reveals the essence of deixis, its types and analyzes the differences in the use if deictic expressions in spoken language and in literary works.

Key words

Language and speech,deixis phenomenon, spoken discourse, literary work, deictic units

Аннотация

В данной статье анализируются виды дейксиса в рассказе Абдуллы Каххара „Вор“, а также различия в использовании дейктических единиц в устной речи и в художественных произведениях.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ключевые слова

язык и речь, явление дейксиса, устная речь, художественное произведение, дейктические единицы.

Til bu-kishilar ongida imkoniyat tarzida mavjud bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning xususiyatlari va tabiati bevosita nutqiy muloqot jarayonida aniqlashadi, reallashadi. Chunki til bu-material. Agar til nutqda qo‘llanmas ekan, u mavhumligicha qolaveradi. Tilning qator vazifalari ham uning og‘zaki yoki yozma nutqda namoyon bo‘lishi nuqtayi nazaridan ajratilgan. Nutqning ikkala turi (og‘zaki nutq) amalga oshishi uchun zaruriy vositalar so‘zlovchi, tinglovchi, nutq vaziyati hisoblanadi. *Shuningdek, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi axborot uzatish va shu axborotni qabul qilish jarayoni nutqiy faoliyat deb ataladi.*[Madrim Hamrayev. Ona tili (qo‘llanma va mashqlar to‘plami. T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014, 20 b] Insonning olam haqidagi bilimlari ongida kategoriyalashtirilgan va tizimlashtirilgan holda tarkib topadi. Biroq muayyan voqelik haqida axborot yetkazish, nutqda talaffuz etish jarayonida ma’lumotlar to‘plami muloqot vaziyati, so‘zlovchi shaxsiyati, og‘zaki nutqda qisqalikka intilishdan kelib chiqib, tizimli va tartibli ravishda ifoda etilmasligi mumkin. Agar tinglovchi so‘zlovchi berayotgan axborotdan bexabar bo‘lsa, unda nuqt vaziyati bilan bog‘liq ma’lum savollar paydo bo‘lishi tabiiy. Bundan tashqari, axborotga aloqador qismlar unga ishora qiluvchi birliklar bilan bayon etilganda aniqlik talabi bilan savollar beriladi. Aynan shu jarayonda bevosita deyksis hodisasi kuzatiladi. *"Deyksis" ning asl yunoncha ma’nosi "ko‘rsatish, ishora" bo‘lib, ilmiy qo‘llanishda lison vositasida "voqelikka ishora, ko‘rsatish" mazmunini olgan.*[Сафаров. Ш. Ррагмалингвистика.Т.2008, 168б]. Deyksis hodisasini yuzaga chiqaruvchi birliklar sifatida asosan, olmosh, ravish so‘z turkumlariga e’tibor qaratiladi. Ammo boshqa so‘z turkumlari orqali ham bevosita predmet, shaxs, voqea-hodisaga, uning sodir bo‘lish vaqti, joyiga ishora qilish mumkin. Masalan, Andijonda bergan va’dam ustidan chiqqanimga endi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ishondingizmi? gapida Andijon o‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi so‘zi va’da berilgan paytga ishora qiladi. Ammo yuqoridagi gapda ishtirok etgan har bir birlik o‘zining mustaqil ma’nosiga ega ekanligi uchun garchi muayyan payt ma’nosini ifodalaydigan so‘z berilmasa ham, zamonga ishorani o‘tgan zamon sifatdoshi ko‘rsatkichi (-gan) orqali aniqlash mumkin. Natijada yuqoridagi gapda deyksis hodisasi kuzatilmaydi, chunki har bir so‘z o‘zining mustaqil ma’nosiga ega ekanligi sababli aniq holatga ishora qilib kelgan. Deyksis hodisasini yuzaga chiqaruvchi birliklar esa bilvosita ma’noga ega bo‘lishi kerak. Aks holda tilimizdagi atoqli otlar, ishora xususiyatiga ega so‘zlar, egasi yashiringan gaplar (Ertaga kutubxonaga dars tayyorlash uchun boraman), otlashish hodisasi (bunda nechta so‘z turkumi otlashish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ularning barchasi olinadi), frazemalar (*Almisoqdan qolgan, Daqquyunusdan qolgan* [Usmonova Sh. Lingvokulturologiya darslik. Toshkent, 2019. 41b] kabi), parafrazalar (kunchiqar mamlakat, aql gimnastikasi, dala malikasi), topishmoq (Guli to‘rtta yarim oy, boshginamdan olar joy), ramz (kabutar-tinchlik ramzi) kabi hodisalarni o‘rganishda muammolar kelib chiqishi mumkin. Shu sababli deyksis hodisasiga aniq chegara qo‘yib olinishi kerak. Demak, deyksis hodisasi kontekst doirasida qo‘llangan birliklarga ishora qiluvchi so‘zlar vositasida yuzaga chiqadi, birliklarning barchasi noaniq xarakterda bo‘ladi. Noaniq deyilishiga sabab ular nimaga ishora qilishiga ko‘ra umumiy xarakterda bo‘lishidadir. Deyktik iboralar ma’nosi uning qaysi birlikka ishora qilishi vositasida aniqlanadi. Shahriyor Safarovning "Pragmalingvistika" kitobida shaxs, makon, zamon, diskurs, emotsional va sotsial kabi deyksis turlari keltirilgan. Biz maqolada Abdulla Qahhorning "O‘g‘ri" hikoyasidagi deyktik iboralar, ularning turi va ma’nosini izohlashga harakat qilamiz. Har bir narsa, voqea-hodisa shaxs qarashi orqali berilishi, ularning markazida shaxs turishi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlardagi inson asosiy o‘rinda ekanligini asarda eng ko‘p shaxs deyksisi qo‘llanganidan ham bilish mumkin. Shaxsni ifodalovchi birliklar sifatida kishilik, ba’zan ko‘rsatish olmoshlari e’tirof etiladi, ammo bu olmoshdan tashqari ko‘rsatish, belgilash,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘lishsizlik, gumon, so‘roq, o‘zlik olmoshi ham shaxsga ishora qilishda faol qo‘llanadi:

1. *U og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi.* [Abdulla Qahhor. Anor (qissa va hikoyalar). T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 77 b]. Bunda u uchinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi burunsiz ellikboshi o‘rnida qo‘llangan. E’tiborli jihati, xuddi shu olmosh nutq vaziyatidan tashqaridagi shaxsga, predmetga va voqea-hodisaga nisbatan qo‘llanadi, qaysi biriga ishora qilayotgani kontekst doirasida aniqlanadi. -*Men beto‘xtov pristavga xabar beraman* gapida birinchi shaxs birlikdagi olmoshi aminga ishora qilgan. -*Endi bizga juda qiyin bo‘ldi-da* gapida biz birinchi shaxs ko‘plikdagi olmoshi Qobil bobo va kampiriga nisbatan ishlatilgan. -*Men qaynagamga aytayin, sizga bitta ho‘kiz bersin* gapida men olmoshi yana ellikboshiga ishora qilgan bo‘lsa, siz ikkinchi shaxs ko‘plikdagi olmoshi orqali yoshi katta Qobil bobo nazarda tutilgan. Bunda barcha kishilik olmoshlari nutq vaziyati doirasida muayyan shaxsga ishora qilgan bo‘lishi mumkin, ammo kontekstdan tashqariga olib chiqilganda, ular noaniq ma’noga ega bo‘ladi. Bunda men, siz, u, biz va boshqa olmoshlar istalgan shu shaxsdagi insonni ifodalab kela oladi. Shuning uchun ham olmoshlar deyksis hodisasini yuzaga keltiradi, chunki ular istalgan o‘ringa ishora qilib almasha oladigan ichi bo‘sh so‘zlar hisoblanadi.

2. *Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktanchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi.* Ushbu gapda deyksis hodisasi belgilash va bo‘lishsizlik olmoshi vositasida amalga oshirilgan. Hamma so‘zi istalgan vaziyatda, bir necha odamlarga nisbatan qo‘llanadi. Asarda dod ovoziga to‘plangan odamlar hamma hisoblanyapti. Bunda qamrovga olingan odamlar soni nisbiy, kamida to‘rt-beshtadan boshlab, yuz-minglab odamlar hamma tarkibiga kiradi. Hech kim olmoshi esa hamma olmoshiga zid ravishda qo‘llangan, ya’ni Qobil bobo atrofida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mahalladoshlari bor, uning xayoli mutlaqo boshqa narsada bo‘lganligi uchun ularni ko‘rmayapti, hamma hech kimga aylanyapti.

3. *-Odamlar dod ovoziga o‘rganib qolgan; birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi; Kimdir shunday kichkina teshikdan ho‘kiz sig‘ishiga aql ishonmasligi to‘g‘risida kishilarga gap ma’qullaydi.* Bu gaplarda shaxs deyksisi gumon olmoshlari orqali ifodalangan. Birov, kimdir to‘g‘ri kelgan odamga emas, balki og‘rilikdan keyingi holatni muhokama qilayotgan odamlardan, nutq vaziyati ishtirokchilaridan biriga ishora qilayotgani uchun ularni deyktik birlik sifatida olish mumkin.

4. *Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da.* Odatda, ko‘rsatish olmoshlari bevosita shaxsga ishora qilishi otlashish holatidan tashqari deyarli uchramaydi. Chunki ular shaxsni ifodalovchi olmoshning boshqa turlari kabi so‘z o‘rnida emas, balki o‘sha so‘z bilan birga qo‘llanadi. Shuningdek, atoqli otlardan ko‘ra ko‘proq turdosh otlar bilan birga keladi: Xudo qo‘llaganlaridan mana bu ellikboshi kabi.

5. *-Gumoningizni ayting bo‘lmasa!-dedi ellikboshi tajang bo‘lib, kim olganini men bilmasam, avliyo bo‘lmasam.* Shaxga nisbatan so‘roqni ifodalovchi kim olmoshi ham ho‘kizni olgan aniq shaxsga ishora qilib kelgan. Bu o‘rinda asarda og‘rining kim eganligi aytilmagan degan savol paydo bo‘lishi mumkin. Asarda ho‘kiz o‘g‘risidan ko‘ra xalq ishonchini suiiste’mol qilgan o‘g‘rilarga asosiy e’tibor qaratilgan. Kim o‘g‘rilik qilgani, ishni qanday bajargani, ho‘kizni qayerga olib ketgani yozuvchi uchun ahamiyatli emas, aksincha bundan keyin sodir bo‘ladigan jarayonlar muhim bo‘lgan. Biroq kontekstda real o‘g‘ri harakatiga mos tavsif berilganini ham unutmaslik kerak. Kim olmoshi esa o‘sha devor teshib hayvonni olib ketgan insonga ishora qilib kelgan.

6. *O‘zi chaqirtiradi (pristav).* O‘zlik olmoshi kishilik olmoshlari o‘rnida yoki ular bilan birga kelib ta’kid ma’nosini ifodalaydi. Yuqoridagi gapda ham o‘zi so‘zi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

deyktik birlik sanalib, pristav amaldor o‘rnida ishlatilgan. O‘zlik olmoshi qo‘shimcha ma’no ifodab kelishi ham mumkin: Onasining o‘zi; O‘zi yuribdi; O‘zi aylanib kelibdi gaplarida o‘xshashlik, yakka, yolg‘iz, sababsiz kabi. Bu ma’nolarni kontekst vositasida farqlash mumkin. Hikoyada tarkibida shaxsga ishora qiluvchi birlik qatnashgan maqol ham keltirilgan: *O‘ynashmagil arbob bilan seni urar har bob bilan.* Ammo maqoldagi bu holatni deyksis hodisasi deb izohlash o‘rinli bo‘lmaydi, chunki o‘zbek tilidagi aksariyat maqollarda olmoshlar qo‘llangan, qo‘llanmagan holatda ham ularda, asosan, ikkinchi va uchinchi shaxsga ishora ma’nosi sezilib turadi: Yetti o‘lchab bir kes; Yer haydasang kuz hayda, kuz hadamasang, yuz hayda; Ona yurting-oltin beshiging kabi. Deyktik ibora sifatida olinmasligining asosiy sababi maqollar xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan, tilimizda tayyor holda qo‘llanadigan birliklar sanalishida. Ulardan har bir so‘zlovchida birdek foydalanish imkoniyati mavjud. Mazmuni esa muayyan bir shaxsga tegishli bo‘lmay, umumiylik xususiyatiga ega. Bundan tashqari, deyksis hodisasi kuzatilishi uchun aniq nutqiy vaziyatda so‘zlovchi va tinglovchi yaratayotgan nutq talab etiladi, maqollar muallifi esa so‘zlovchining o‘zi emas, balki xalq deya talqin etiladi, chunki ularning muallifi unutilgan va davrlar o‘tishi bilan xalq ijodiga aylangan. Demak, maqollar tarkibida ishtirok etgan olmoshlar muayyan shaxs ko‘rsatkichiga ishora qilsa ham, barcha xalq vakillariga qarashli bo‘lar ekan. Hikoyada makon deyksisi ham qo‘llangan bo‘lib, uni quyidagi gapda uchratish mumkin: *Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi; Odamlar og‘ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho‘kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to‘g‘risida bahslasha-bahslasha tarqaldi.* Ushbu gapda makonni ifodalovchi qaysi tomon so‘ziga e’tibor qaratilgan. Makon deyksisi deyilganda aniq o‘rin-joyga emas, balki noaniq joyga, makonga ishora qilgan birliklar olinadi va, asosan, o‘rin ravishlari orqali namoyon bo‘ladi. Qaysi tomon birligida tomonning to‘rtta ekanligi aniq: old, orqa, o‘ng va chap yoki dunyo tomonlari shimol, janub, sharq va g‘arb singari. Ammo turgan joy o‘zgarishi bilan tomonlar ham o‘zgargani bois uni noaniq makonga olish mumkin

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘ladi. Qaysi bozor birligida bozor orqali makon ifoda etilgan, biroq bu so‘z bozorlar ko‘p bo‘lsa ham, aniq makonni bildiradi. Ayniqsa, qaysi tomonga borish aniqlashgach, o‘sha tomonda joylashgan bozorlarga nisbatan oydinlashadi. Zamon deyksisi esa uchta gap orqali ifodalangan: *Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi; Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi - Egamberdi paxtafurush oldiga olib bordi.* Gaplarida kechqurun va ertasiga payt ravishlari orqali noaniq zamon ifoda etilgan, ya’ni kechqurun 365 kunning istalgan sanog‘iga tegishli bo‘ladi: 15-oktabr kechqurun, 23-mart kechqurun, e’tibor berilsa, kechqurun so‘zi aniq har kunduz o‘z kechiga ega, ammo raqamlarsiz yakka qo‘llanganda nutq vaziyatidagi so‘zlovchi va tinglovchi uchun aniq, qolgan holatda noaniqlik kasb etadi. Ertasiga birligi ham xuddi shunday 13-noyabrda 14-noyabr haqida gapirilsa, 24 soatdan keyin ertasiga (14-noyabr) bugunga aylanadi. Kecha, bugun, erta so‘zlari nisbiy ravishda aytiladi. *Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi*. Ushbu gapda esa tartib son orqali noaniq zamon ifoda etilgan. Noaniqlikni oylar hisobida izohlash mumkin. 12 ta oy mavjud bo‘lib, har bir oy yakuni turli raqamlar bilan belgilanadi 27, 28, 30, 31 kabi. 12 oyning qaysi biridagi sakkizinchi kun haqida aytilayotgani noma’lum. Biroq tartib sonlarning, umuman son so‘z turkumining deyarli barcha turida ishora xususiyati mavjud ekanligini ham unutmaslik kerak. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hikoyada nutq vaziyatidagi so‘zlovchi, tinglovchi vazifasi bitta shaxs tomonidan bajarilganligi uchun og‘zaki nutqdan farqli ravishda yozuvchi mazmunga va qoidalarga mos deyktik iboralardan foydalanish, o‘qish jarayonining samarali kechishini ta’minlash maqsadida atoqli otlarning turdosh otlar yoki ishora qiluvchi so‘zlar shaklida keltirib o‘tish, shuningdek, qalamga olingan muammolar ko‘lami jihatidan deyksisning ma’lum turini faol qo‘llash imkoniyatiga ega. Ammo og‘zaki nutqqa tayangan holda bu masala tahlil etilsa, yozma nutqdagidan farqli jihatlar kelib chiqaveradi. Chunki unda muloqot ishtirokchilari aniq farqlanadi, og‘zaki nutq bo‘lgani uchun gapdagi so‘zlarning eng muhimlari olinadi, nutq esa, odatda, spontan ravishda kechadi. Tahlil jarayonida esa deyksis hodisasini yuzaga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

chiqaruvchi vositalar, albatta, nutq vaziyatidagi birlikga ishora qilishi hamda bunday iboralarning o‘zi universal xarakterga ega bo‘lishi kerakligi, ya’ni har qanday shaxs, makon, zamon va boshqalarga birdek ishora qilishi lozimligi e’tiborga olinishi lozim. Boshqa holatlarda ishora xususiyatiga ega so‘zlarning ma’nosini aniqlashtirilishi maqsadga muvofiq. Aks holda tilni izohlashda qator muammolar kelib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdulla Qahhor. Anor (qissa va hikoyalar). T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 76-79 b.

2.Hamrayev M. Ona tili (qo‘llanma va mashqlar to‘plami).T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014, 20 b.

3.Сафаров Ш. Ррагмалингвистика. Т.: 2008, 167 б.

4.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: «Сангзор» нашриёти, 2006.

5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya darslik. Toshkent, 2019.

6. Muxlisa Sobirova. Internet mediamatnida ijtimoiy deyksisga ishora qiluvchi lingvistik vositalar.

7. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. Тошкент,2018

8. Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари. Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020.

9. Hasanova G. Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. O‘zbekiston: til va madaniyat, 2021.